
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 3

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

БЕКПЎЛАТ УМУРҚУЛОВ
Бадиий нутқ – лингвистик тадқиқотлар манбаи 7

НЮБАР ХАКИМОВА
Традиционное врачевание или логманство,
концептуальные и практические направления 15

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Синтагматика согласных фонем в узбекском языке
(На материале финальных двучленных сочетаний) 18

TURDIQULOV SHERZOD DUMINOVICH
Teolingvistik g‘oyalarning onomasiologik tadqiqotlarda aks etishi 23

САМАНДАРОВ РУСТАМ ДЎСЁРОВИЧ
Синтактик деривация жараёни ва аппликатив модел 25

TURDIMURODOV SIROJIDDIN ESHQOBILOVICH
Xususiyat, hajm-o‘lchov va hid bildiruvchi
evfemik birliklarning lingvistik xususiyatlari 29

АЛИМАРДАНОВ ЭЛЁР ИЛХОМ ЎҒЛИ
Хоразм диалектал зонасидаги ўзбек ва туркман тиллари
контактларини ўрганишнинг назарий асослари 32

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
O‘zbek tilida lisoniy shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy omillar 37

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar presuppozitsiyasi 41

TO‘YCHIYEVA ZULAYHO HAMRAQULOVNA
Zulfiya she’riyatida ayrim frazemalarning qo‘llanish xususiyatlari haqida 45

XUDAYBERGANOVA DILDORA KULMAMATOVNA
O‘zbek tilida zoonimlarning semantik-funksional tahlili
(Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida) 49

М У Н Д А Р И Ж А

JO‘RAYEVA NASIBAXON G‘ANIYEVNA
Tarixiy asarlar leksikasida eskirgan so‘zlar tizimi 52

XAYDAROVA XURSHIDA
Takroriy taqlid so‘zlar klassifikatsiyasi
(Besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘ati asosida) 57

АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА ВАПАЕВА
Периоды формирования новейших
слов в узбекском и русском языках 61

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Адабиётшунослик терминларини ўзбекчалаштириш муаммолари 65

JABBOROV ESHNAZAR
Jahon ma’rifatchiligining sharqona tamoyillari 69

ҚУРОНОВ САЪДУЛЛО ДИЛМУРОДОВИЧ
Ўтиш даври романлари ва инсон концепцияси 71

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILIDA ZOONIMLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL TAHLILI (Ogahiy asarlaridagi zoonimlar misolida)

Xudayberganova Dildora Kulmamatovna,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasikatta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Har qanday xalqning o'z tarixi va o'sha tarixni aks ettiradigan eng noyob boyligi va ulkan merosi bo'ladi va bunday boylikni biz til deb ataymiz. Til har bir millatning yashash tarzini, urf-odatlari-yu udumlarini o'zida aks ettiradigan mukammal va buyuk meros hisoblanadi. Til lug'at boyligining shakllanish jarayonini kuzatish uchun qadimiy manbalar tilini, leksikasini o'rganish va hozirgi tilda aks etgan leksika bilan qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qadimiy manbalarni o'rganish, ularni tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli biz ushbu maqolamizda Ogahiy asarlarini lingvistik jihatdan o'rganamiz va onomastik jihatdan tahlil qilamiz. Bilamizki, turkiy xalqlar qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan, odamlar va hayvonlar yonma-yon yashashgan. Ming yillar davomida chorvachililk va ovchilik rivojlanishi shu sohaga doir terminlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Zoonim **–** (*zoo* yun. *onyma* nom, ism) hayvon nomlari bilan bog'liq so'zlar deb sharhlangan. Bunday so'zlar tadqiqi Mahmud Koshg'ariyning devonidan boshlangan, unda 400 ga yaqin zoonimlar, shu jumladan, 100 ga yaqin qush nomlari izohlanganligi tilshunoslikdan ma'lum. Turkiy xalqlarda zoonimlarning lisoniy tadqiqiga bag'ishlangan bir qator dissertatsiya va monografik ishlar e'lon qilingan. Xususan, A.M.Sherbakning tadqiqotida[1] uy va yovvoyi hayvonlar jinsiga, yoshiga ko'ra nomlarining etimologik va semantik tahlili berilgan bo'lsa, E.Aydogmushning dissertatsiyasida turk va qirg'iz tillaridagi zoonimlarning nomlari tasniflangan, zoonim komponentli iboralar tahlil qilingan, xonaki va yovvoyi hayvon nomlarining yasalishi o'rganilgan, zooleksikasining tarixiy qatlamlari aniqlangan. O'zbek tilshunosligida zoonimlar, zoonim komponentli matnlarning lisoniy xususiyatlariga bag'ishlangan o'ndan ortiq dissertatsiyalar yozilgan, qator monografik tadqiqotlar va izohli lug'atlar chop etilgan. Ularda turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar, zoologik atamalarning shakllanish bosqichlari, zoonimlarning ma'no ko'chimlari, badiiy san'at turlarini hosil qilishdagi, inson xarakterini ifodalashdagi ahamiyati, hayvon arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili, shaxs tavsifida hayvon nomlaridan foydalanish, o'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar, zoonim komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari, zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari singari masalalar tahlil qilingan. Bundan tashqari f.f.d., professor B.Abdushukurov ham o'zining ilmiy tadqiqotida XI – XIV asrlar turkiy obidalar tilidagi hayvonlar terminlarini quydagicha mavzuiy guruhlarga ajratib tahlil qilganlar.

1. Sut emizuvchi hayvonlar nomini bildiruvchi terminlar;
2. Qush nomini anglatuvchi terminlar;
3. Sudralib yuruvchi hayvon nomlari;

Ba'zi ilmiy tadqiqotlarda mavzuiy guruhlarga ajratishni biroz boshqacharoq shaklda ko'rishimiz mumkin.

1. Hayvonlarning umumiy nomlari;
2. Uy hayvon nomlari;
3. Yovvoyi hayvon nomlari.

Biz quyida Ogahiy asarlari matnida uchraydigan zoonimlarni yuqoridagi mavzuiy guruhlar asosida tahlil qilamiz.

Hayvonlarning umumiy nomlari

Ogahiy asarlaridagi muayyan hayvon nomini anglatadigan terminlar o'zining qadimiyligi jihatidan ajralib turadi. Hayvon ma'nosini anglatadigan **mol** leksemasi jamiyat taraqqiyoti natijasida boylik, davlat ma'nolarini bildirgan. Ogahiy asarlari matnida ham **mol** so'zi uy hayvonlarining barchasi uchun umumiy nom bo'lishi bilan birga, boylik, mulk, keng iste'mol mollari ma'nosida ham qo'llanilgan.

Olib har xayl barda beshumora,
*Mato-u **molg**'a xud ne shumora*[2].

Yuqoridagi bayt orqali **mol** so'zi mulk ma'nosini anglatayotganligini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi

[1] Щербак А.М. Названия домашных и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – М.: Акад. СССР, 1961. – С. 82-150.

[2] Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy "Riyozu-d-davla". – Urganch: Quvonchbek-Mashhura, 2020. – B. 64.

parchada esa **mol** so‘zi hayvon nomi ma’nosini anglatyapti:

*…Va afvoji qohirakim, atrof-u javonibg‘a chopovullab borib erdilar, har favj bir tarafdin ko‘p asir va **mol-u** mavoshiy va ot va teva va qo‘zi va qo‘y o‘lja qilib, muaskari humoyung‘a kelturdilar[1]…*

Uy hayvon nomlari

Mavoti, ot, qo‘zi, mol, teva, qo‘y, yilqi, toy, g‘unon, ashxob, raxsh, yakron, it, eshak kabilar uy hayvonlari nomini anglatadigan terminlar hisoblanadi.

***Teva** yig‘naldi hadd-u sondin ortuq,*
O‘guz ul navkim, imkondin ortuq.
*Yig‘ilmish **yilqi** andoq beshumora,*
Ki atrofig‘a etmaydur nazora[2].

Tuya – tuyasimonlar oilasi, qadoq oyoqlilar turkumiga mansub juft tuyoqli sut emizuvchi hayvon[3]; bir yoki ikki o‘rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sut emizuvchi ish hayvoni[4]. **Tuya** leksemasi O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida *teba // teva*, eski o‘zbek tili obidalarida, Alisher Navoiy asarlari leksikasida *teva* shaklida uchraganligi aniqlangan[5]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *tuya*, shevalarda *teva* shakllari iste’molda ekanligi ma’lum. Yuqoridagi baytda **yilqi** so‘zini ham ko‘rishimiz mumkin, yilqi so‘zi M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida bo‘sh, bog‘lanmagan, o‘z holicha yurgan hayvonga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, Ogahiy asarlarida otlar podasi ma’nosida qo‘llanilgan.

Yovvoyi hayvon nomlari

Tovushqon, darranda, qulon, sher, yo‘lbars, ablaq (ola-bula tusli, yo‘l-yo‘l rangli yovvoyi ot), sibo (yovvoyi, vaxshiy hayvonlar), kiyik kabi yovvoyi hayvonlar ma’nosini anglatadigan terminlar hisoblanadi.

…Bo‘lubon qahqahazan kabki dar ham,
***Tovushqon** har qadamda jilvagar ham[6]…*

Ushbu baytdagi **tovushqon** so‘zi shevaga oid so‘z bo‘lib, quyon ma’nosini anglatadi. Navoiy asarlari tilida ham yovvoyi dala quyoni ma’nosini bildiradi. Ba’zi manbalarda **xargush** varianti ham ishlatilgan, **xargush** yovvoyi quyon degan ma’noni beradi.

Ogahiy asarlari tilida turkiy qatlamga oid zoonimlardan tashqari arabiy va forsiy qatlamga mansub zoonimlar ham talaygina qo‘llanilgan.

*…juyushi daryoxurushning barcha **mavoshiy** va matoyosin sug‘orib, shodob va serob qildilar. andin so‘ng meshk va mitharalarig‘a suv oldurub, yo‘l azimatig‘a mustaid va omoda etdilar[7]…*

Yuqoridagi parchada **mavoshiy** so‘z arabiy qatlamga mansub leksema hisoblanib, uy hayvonlari: qo‘y, sigir kabi ma’nolarda keladi. Bundan tashqari forscha hayvon ma’nosini bildiradigan termin ishlatilgan.

*…ul hazratg‘a murassa xil’at kiydurub, bir **raxsh**i tozinajod va ashhabi parinihod mindurdikim[8]…*

Qaysi masof ichraki, kirdi dalir,
*Xasmini **sher** ersa ham aylab asir[9].*

Fors tilidan o‘zlashgan sher leksemasi – arslon; botir, jasur; asad[10] ma’nolarini ifodalashi aniqlangan. Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asarida leksikasida bu istiloh – mushuksimonlar oilasiga mansub, kalta va sarg‘ish yungli yirik sut emizuvchi yirtqich hayvon; arslon ma’nosini ifodalagan.

Asar leksikasining ba’zi o‘rinlarida bu leksema ko‘chma ma’noda epik qahramonni sherga nisbatlab ataganlikni (azamat, botir, polvon ma’nosida) kuzatildi:

Har birisi bir hizabr yanglig‘,
*Har birisi **sher**-u babr yanglig‘[11].*

Qulon otdan kichikroq, eshakdan kattaroq, otdan ko‘ra ko‘proq eshakka o‘xshab ketadigan yovvoyi hayvon[12], shuningdek, kiyik quvush shoxli sut emizuvchilar oilasining ohu, bug‘u va hokazolar kabi katta bir guruhining umumiy nomi[13] bo‘lib, zoonimlarning bir turi sifatida Ogahiy asarlari matnida ohu, g‘izol tarzida keng qo‘llangan:

*Chobuk **qulonu** semiz tovushqon,*
Ul besha aro adaddin oshqon[14].
Qoshi nazokat falakida hilol,
*Ko‘zi nazohat xo‘tanida **g‘izol**[15].*
*Summi **raxsh** etib naqsh yer nat’ini.*
Chiqib charx ayvonig‘a g‘ulg‘ula,
Tushub arz arkonig‘a zilzila[16].

[1] O‘sha asar, 102-bet.
[2] O‘sha asar, 191-bet.
[3] Xolmonova Z., Tosheva D. Zoonim komponentli paremalarning izohli lug‘ati (o‘zbek, ingliz va rus tili materiallari asosida). Lug‘at. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016. – B. 260.
[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 222 б.
[5] Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 116.
[6] Ogahiy. Devon. 2-jild. – Toshkent, 1972, 285-bet.
[7] Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy “Riyozu-d-davla”. – Urganch: Quvonchbek-Mashhura, 2020. – B. 91.
[8] Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy “Riyozu-d-davla”. – Urganch: Quvonchbek-Mashhura, 2020. – B. 338.
[9] O‘sha asar, – 51-bet.
[10] 10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 563 б.
[11] O‘sha asar, 268-bet.
[12] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 370 б.
[13] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 364 б.
[14] Ogahiy. Devon. 2-jild. – Toshkent, 1972. – 365 b.
[15] O‘sha asar, 554-bet.
[16] Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy “Riyozu-d-davla”. – Urganch: Quvonchbek-Mashhura, 2020. – 337 b.

Ushbu parchada raxsh leksemasi forsiy qatlamga mansub bo‘lib, olachipor, chopqir, chiroyli ot degan ma’noda ishlatilgan.

Ko‘pchilik turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilda ham, xususan, Ogahiy asarlaida ham zoonimlar yoshiga qarab ham nomlanadi. Shoir nazmida iste’molda bo‘lgan toy, g‘unon, ot, qo‘zi, eshak, it, tuya kabi zoonimlar paradigmasidagi ot, yilqi, qo‘y, eshak, it, tuya leksemalarida zoonimlarning yoshi va kattalik semasi mavjud. G‘unon va toy leksemalarida yoshi kichiklik semasi borligini ko‘rishimiz mumkin.

*Gohi **g‘unon-u** gohi chopib **toy,***
Soldi ulus ichra xuy ila xoy[1].
***Qo‘y** birla **qo‘zi** adadidin afzun*[2].

G‘unon o‘zbek tilida ikki yashar ayg‘ir yoki qo‘chqorni anglatadigan hayvon nomi hisoblanadi. Qoraqalpoq tilida ikki yashar ot ma’nosida qo‘llaniladi. Ayrim manbalarda g‘unon uch, to‘rt yashar ot, uchga to‘lmagan ot, ikki yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan toy ma’nolariga ega.

Toy – qulunning yabag‘idan keyingi davri hisoblanadi. Endigina ishga o‘rgatila boshlagan ikki-uch yoshdagi otlar shu nom bilan ataladi. Unda otning ikki yashardan kichik bolasi ma’nosi ham bor[3]. Qo‘y umumiy ma’noga ega bo‘lib, unda voyaga yetganlik, ammo jinsi noaniqlik semasi bo‘lsa, qo‘zi so‘zida qo‘yning yoshiga yetmagan bolasi ma’nosi bor.

Ogahiy asarlari matnini tahlil qilar ekanmiz muayyan qismini hayvon nomlarini ifodalovchi so‘zlar, ya’ni zoonimlar tashkil qilishini ko‘rib chiqdik va hayvon nomi bilan bog‘liq so‘zlar uslubiy bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadi. Ogahiy asarlari tilidagi zoonimlar boshqa ijodkorlar asarlari tilidan ancha ko‘p va sermahsul ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Rezyume. Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy asarlaridagi tuyoqli hayvon nomlari yig‘ildi va tahlil qilindi. Ogahiy asarlaridagi zoonimlarni o‘rganish davomida turkiy qatlamga mansub zoonimlardan tashqari arabiy va forsiy qatlamga mansub bo‘lgan zoonimlarni ham uchratishimiz mumkin.

Rezume. This article discusses the compilation and analysis of animal names in the works of Muhammad Rizo Ogahi. During the study of animal names in Ogahi’s works, it is possible to observe not only terms related to animals from the Turkic region but also those from the Arabic and Persian realms.

Резюме. В данной статье собраны и проанализированы термины названий копытных в творчестве Мохаммада Риза Агахи. При изучении зоонимов в творчестве Агахи, помимо зоонимов, принадлежащих к тюркскому слою, можно обнаружить также зоонимы, принадлежащие к арабскому и персидскому слоям.

[1] Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. – Toshkent: Fan, 2016. – 345 b.
[2] O‘sha asar, – 345-bet.
[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-2-jild. – Moskva, 1981. – 197 b.